

Dekan kubogi uchun

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida sportni rivojlantirishga va yosh sportchilarni Xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirish, jismoniy salohiyati yuqori, ruhiy tetik sportchilarni tayyorlashga katta e'tibor ko'rsatib kelinmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusni ikkinchi tashabbus aynan yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. Hozirgi kunda hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, respublikamizda mayjud barcha oliy ta'lif muassasasida sport bilan shug'ullanishga barcha shart-sharoitlar mavjud.



Ushbu sharoitlardan unumli foydalanish talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti joriy yilning 15 oktyabr kuni fakultet dekani Sh.Narbaev va yoshlар bilan ishslash bo'yicha dekan muovini H.Eshova, fakultet yoshlар ittifoqi yetakchisi H.Tojiboev tashabbusi bilan 1 - kurs talaba-yoshlар o'rtaida "Sport sog'liq garovi" shiori ostida "Dekan kubogi" sport haftaligi boshlandi. Bugun ushbu sport haftalikni birinchi kuni. Ushbu musobaqada fakultetimizni iqtidorli, sportga ishtiyoqi baland 1 -kurs talabalari guruuhlar miqyosida sportning futbol turi bo'yicha o'zaro bellashishdi. Yuqori kayfiyatda bo'lib o'tgan ushbu musobaqamizda uchunchi o'rinni 1 - kurs 6 - guruhi, ikkinchi o'rinni 1 - kurs 9 - guruhi, faxrli birinchi o'rini 1 - kurs 5 - guruh talabalari egallahashdi. Barcha ishtiroychilarga minnatdorchilik bildiramiz. Ushbu musobaqa fakultetdagi sport haftaligini ochilishi desak bo'ladi. Hafta davomida sportni boshqa turlari bo'yicha ham musobaqalar tashkillashtiriladi.



YRB fakulteti Yoshlar bilan ishslash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati